



TOSHKENT SHAHRIDAGI INHA UNIVERSITETI
INHA UNIVERSITY IN TASHKENT

TOSHKENT SHAHRIDAGI INHA UNIVERSITETI





Hurmatli talabalar va ota-onalar!

Bugungi kunga kelib jahonda fan va texnologiyaning jadal rivojlanayotgan raqobatli sharoitida, insonni muvaffaqiyat va yutuqlarga eltuvchi eng muhim omil bo'lib - Ta'lrim xizmat qiladi.

Buni e'tirof etgan holda, shuni aytish joizki, Toshkent shahridagi Inha universitetining yuqori malakali professor va o'qituvchilari, talabalarga XXI-asrning raqamli texnologiyalari zamonasida muvaffaqiyat qozonish hamda barcha zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Bizning eng muhim maqsadimiz, sizlarning talabalik hayotingizda alohida bir o'rinni egallash va kelajakda erishadigan ulkan muvaffaqiyatlaringizning quvonchini birgalikda bo'lishishdir!

Sizning kelajagingiz bugun boshlanadi! Toshkent shahridagi Inha universitetiga xush kelibsiz va sizlarga omad yor bo'lsin!

Hurmat bilan, Toshkent shahridagi Inha universiteti rektori

Djalalov.M.M.





Toshkent shahridagi Inha Universiteti (IUT)

Toshkent shahridagi Inha universiteti (TShIU) 2014-yilda tashkil etilgan. Universitet bo'lib, Koreya Respublikasidagi Inha universiteti bilan hamkorlikda asos solingan va bugunga kelib 1700 dan ortiq talabalar universitetning ikki asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.



Janubiy Koreyadagi Inha Universiteti

Bugungi kunda, Inha universiteti Janubiy Koreyadagi eng rivojlangan universitetlarining yuqori o'ntaligidan (Top 10) o'rinni olgan. Universitetning texnika va muhandislik fakultetlari esa, mamlakatning "Eng yetakchi universitetlar" reytingida to'rtinchi o'rinni egallagan. Universitetning yutuqlarga yetaklovchi shiori uch muhim sifatni birlashtiradi: "Ijodkorlik, mehnatsevarlik va jamiyatga xizmat qilish".

UNIVERSITETNING VAZIFALARI

Toshkent shahridagi Inha universiteti kompyuter va dasturiy injiniring, hamda logistika yo'nalishlari bo'yicha, xalqaro mehnat bozorida yuqori talabga ega bo'lgan mamlakatimizning yetakchi mutaxassislarini tayyorlaydi.




UNIVERSITET TA'SISCHILARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEKNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSİYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIĞI



[Uzkimyosanoat](#)



"Navoi Mining and
Metallurgical Company"
Joint Stock Company



АЛМАЛЫКСИЙ
ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКИЙ
КОМБИНАТ



JOINT-STOCK COMPANY
O'ZBEKISTON
TEMIR YO'LLARI

TA'LIM YO'NALISHLARI

Bakalaviatura

Dasturiy injiniring va Kompyuter injiniringi - School of Computer and Information Engineering (SOCIE)

Dasturiy injiniring – ushbu yo'nalish bo'yicha tahsil olayotgan talabalar kompyuter tizimlarini rivojlantirishning asosidagi elektrotexnika va informatika fanlari bo'yicha chuqur ilmlarga ega bo'lishadi.

Kompyuter injiniring – kompyuter va mobil qurilmalar uchun dasturiy ta'minotni boshqarish va ishlab chiqish, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish, shuningdek ma'lumotlar bazasini boshqarish dasturlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydi.



Logistika va biznes fakulteti - School of Business and Logistics (SBL)

Ushbu mutaxassislik asosida minimal xarajat bilan tovarlarni saqlash va muhim geografik lokatsiyalariga yetkazib berishning samarali jarayonlarini ishlab chiqish uchun muhim bo'lgan bilimlar qamrab olinadi.



Raqamli transformatsiya bo'yicha MBA

Ushbu dastur biznes boshqaruvining asosiy yo'nalishlaridan tashqari sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va bulutli hisoblash mavzularini qamrab oladi.

Dasturning maqsadi talabalarga texnik, nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda boshqaruv fikrlash va konvergent muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali tashkilotlarda raqamli biznes transformatsiyasini loyihalash, amalga oshirish va boshqarish imkonini berishdir.

Amaliyot sifatida talabalar Koreyada ikki semestr davomida Koreyaning global kompaniyalariga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'ladilar, shunda ular darslarda olingan bilimlarning haqiqiy biznes olamida qanday qo'llanilishini o'rganishlari va o'rganishlari mumkin.



Dastur moliyaviy xizmatlar, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, mehmondo'stlik, ta'lim va hukumat kabi sohalar bo'ylab biznesning raqamli transformatsiyasini osonlashtirish uchun mo'ljallangan.

Qabul va saralash jarayoniga oid barcha batafsil ma'lumotlar universitet veb-sayti – inha.uz da e'lon qilinadi



ABITURIYENTLAR UCHUN MA'LUMOTLAR

Kompyuter va Dasturiy Injiniring Fakulteti (SOCIE).

Universitetning bakalavr yo'nalishiga akademik litsey, kollej va o'rta maktabni tugatgan va tegishli sertifikat yoki diplomga ega bo'lgan abituriyentlar qabul qilinadi. Abituriyentlar IELTS (minimal 5.0 ball) yoki TOEFL iBT (minimal 50 ball) ingliz tili sertifikatlarini taqdim etishlari joiz.

 **Tahsil olish muddati - 4 yil**

Qabul imtihonlari:

Shartnoma asosida o'qish uchun:

Imtihon 60 daqiqa davom etadi va 20 ta savoldan iborat bo'ladi. Shundan 21 ta savol matematikadan, 9 ta savol fizikadan.

Grant asosida o'qish uchun:

Imtihon 100 daqiqa davom etadi va 40 ta bir nechta variantlardan iborat. Shundan matematikadan 20 ta savol, fizikadan 20 ta savol.

Logistika va Biznes Fakulteti - School of Business and Logistics (SBL)

Universitetning bakalavr yo'nalishiga akademik litsey, kollej va o'rta maxsus maktabni tugatgan va tegishli sertifikat yoki diplomga ega bo'lgan abituriyentlar qabul qilinadi. Abituriyentlar IELTS (minimal 5.5 ball) yoki TOEFL iBT (minimal 71 ball) ingliz tili sertifikatlarini taqdim etish lozim.

 **Tahsil olish muddati - 4 yil**

Qabul imtihonlari (SBL):

Shartnoma asosida o'qish uchun:

30 ta savoldan iborat matematika fanidan imtihon 60 daqiqa davom etadi.

Grant asosida o'qish uchun:

30 ta savoldan iborat matematika fanidan imtihon 100 daqiqa davom etadi.

* Savollar soni va imtihon vaqtini o'zgarishi mumkin

Imtihonlarning shaffofligi va oshkoraliqi

Toshkent shahridagi Inha universiteti mamlakatimizda birinchi bo'lib qabul imtihonlari jarayonini onlayn translyatsiya asosida amalga oshirishni joriy qilgan.

Qabul imtihonlari jarayonining haqqoniyligini nazorat qilish maqsadida har yili Janubiy Koreyaning Inha universiteti professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan qabul komissiyasi Inha Universiteti qabul jarayonlarini o'tkazish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyuradilar. Imtihonlarga jurnalistlar ham taklif qilinadi va har bir imtihon xonasidan jonli efir mavjud

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, karantin talabalaridan kelib chiqqan holda imtihonlarni to'liq shaffof o'tkazish mumkin, bunda test sinovlarining yakuniy bosqichi onlayn intervyu hisoblanadi.



Qabul imtihonlari uch marotaba bo'lib o'tadi:

2019-yildan beri Toshkent shahridagi Inha universitetiga qabul imtihonlari uch marotaba bo'lib o'tadi. Buning negizida, har bir abituriyentga universitetning qabul imtihonlariga qulay vaqt oralig'ida ishtirok etishiga qo'shimcha ikki imkoniyat berishdir.

XALQARO FAKULTET VA AKADEMİK TIZIM

Universitetimizning 48 % ortiq malakali xorijiy professor(PhD) va o'qituvchilardan iborat bo'lib, ular Avstraliya, Janubiy Koreya, Hindiston, Bolgariya, Italiya, Rossiya va Kanada.

Ta'lim xalqaro kredit tizimiga asoslangan bo'lib, u talabalarga ma'lum chegaralar asosida kreditlarni to'plash orqali o'quv jarayonini individual ravishda rejalshtirishga imkon beradi.

Kredit tizimining ahamiyati shundaki, o'quv dasturlari mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda tuziladi.

O'quv fanlarining 50 foizi tanlab olinib, tizimda darslar interfaol shaklda olib boriladi.

Hafta davomida talaba mustaqil ishlarni bajaradi, shundan so'ng o'qituvchi ish natijalari va talabalarning haftalik reytingi bilan tanishadi.

 O'qish jarayoni Koreya Respublikasidagi Inha universitetining ta'lim standartlari asosida tashkil etilgan.



O'quv jarayoni ingliz tilida olib boriladi.



Diplom

Universitet bitiruvchilariga ikkita diplom taqdim etiladi. Bular: Toshkent shahridagi Inha universitetining davlat diplomi va Janubiy Koreyadagi Inha universitetining xalqaro diplomidir. Toshkent shahridagi Inha universitetining xalqaro diplomi Janubiy Koreyadagi diplom bilan bir xil kuchga ega. Xalqaro diplom dunyoning istalgan nuqtasida tan olinadi va talabalarga dunyo miqyosida ko'p marotaba imkoniyatlarini beradi.

Xalqaro darajadagi diplom

 Toshkent shahridagi Inha universiteti xorij davlatlariga chiqmasdan xalqaro darajada ta'lim olish imkoniyatini beradi.

TALABALARGA MOLIYAVIY YORDAM

DAVLAT GRANTLARI

Prezident qaroriga ko'ra, Toshkent shahridagi Inha universitetiga 2021-2022 o'quv yilida o'qishga qabul qilish uchun 50 ta grant ajratildi. Yangi o'quv yilida qancha davlat grantlari ajratilishi haqida keyinroq ma'lum qilinadi.



TALABALAR YUTUQLARI UCHUN GRANTLAR

Har bir semestr yakunida eng yaxshi talabalar reytingi tuziladi. Semestr yakunida eng yaxshi natijalarga erishgan 10 nafar talaba uchun Universitet bir martaqlik grantlar (50 dan 100 foizgacha) ajratadi, bu esa roppa-rosa bir semestr uchun ta'lim xarajatlarini qoplaydi. A'llo darajadagi akademik ko'satkichlarga ega bo'lgan talabalar har semestrda bunday grantlarni olishlari va to'rt yil davomida bepul o'qishlari mumkin.

KOREYADA YOZGI MAKTAB

Toshkent shahridagi Inha universiteti 10 nafar faol va iqtidorli talabalarga Koreyadagi Inha universitetining yozgi maktabida bepul o'qish imkoniyatini beradi. Har yili eng yaxshi ishlanmalar tanlov asosida tanlanadi - bu asl va amaliy mahsulotlar yoki Toshkent shahridagi Inha universitetining rivojlanishiga qaratilgan loyihalar bo'lishi mumkin.

Eng yaxshi loyihalarni yaratuvchilar yozgi maktabga ruxsatnoma oladilar, u yerda talabalar "Koreys tili", "Sharqiy Osiyoning siyosati va xalqaro aloqalari", "Koreya va uning madaniyati", "Koreyadagi iqtisodiyot va biznes", "Yangi texnologiyalar" kabi kurslarda amaliyot o'taydilar.



2022 Inha Summer School

August 1 ~ August 17, 2022 Inha University

UNIVERSITET HAYOTI

KUTUBXONA

Universitetning Axborot Resurs Markazida hozirgi kunga kelib 8000 dan ortiq kitoblar mavjud. Kutubxonadagi kitoblarning 95% adabiyot va o'quv materiallari bo'lib: ingliz, koreys, nemis, fransuz, polyak, yunon va boshqa tillarda mavjud. Qolganlari - o'zbek va rus tillaridagi kitoblardir.

Universitet talabalari ko'p vaqtlarini kutubxonada o'tkazadilar, chunki u zamonaviy texnologiyalar va eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan.



LABORATORIYALAR

Universitet ozining zamonaviy o'quv va laboratoriya majmualari bilan faxrlanadi, bu laboratoriya ishlarini bajarish uchun ko'chma modullar, talabalar ishini monitoring qilish va baholash uchun dasturiy ta'minotni o'z ichiga oladi. Masalan, universitetda Oracle Academy, Aspex BI School, Cisco Academy, Akfa class, PSB, Artel R&D laboratoriyalari ochilgan.



TALABALAR TURAR JOYI

2021 yilning 1 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ko'magida Toshkent shahridagi Inha universitetining birinchi Talabalar turar joyi o'z talabalari uchun eshiklarini ochdi.

Har bir turar joy qavatida istiqomat qiluvchilar uchun xonalar, shu jumladan o'quv xonalarini mavjud bo'lib, barcha kerakli uskunalar bilan jihozlangan. Turar joyda oshxonalar (muzlatgich, mikroto'lqinli pech, plita), ovqatlanish xonasini, hammom hamda hojatxona mavjud. Wi-Fi nuqtalari va xavfsizlik tizimi bilan ham ta'minlangan.



Turar joy ichki jihozlanishi samarali tashkil etilishi uchun Inha universiteti (Koreya Respublikasi) tajribasi birinchi marta qo'llanildi.

Talabalar turar joyida 200 ta o'rinni mavjud bo'lib, ularidan 150 tasi o'g'il bolalar uchun hamda 50 tasi qizlar uchun mo'ljallangan.

TADBIRLAR

Toshkent shahridagi Inha universiteti doimiy ravishda IT bilan bog'liq yirik tadbirlarni tashkillashtiradi va qatnashadi. O'tgan yilning o'zida universitetda Bir Million o'zbek kodlovchilar, Google GDG DevFest, Open Data Tashkent va IT Women final bosqichi kabi keng ko'lamli tadbirlar bo'lib o'tdi.

Universitet IT sohasidagi ko'plab global korporatsiyalar (Microsoft, SAP, Oracle, Cisco va boshqalar), shuningdek, universitet talabalari uchun potentsial ish beruvchilar bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan yaqin hamkorlik qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ikkinchi kursdan boshlab talabalar qisman ishlaydilar va shaxsiy xarajatlarini qisman to'lay oladilar.



TSHIUDAGI KING SEJONG INSTITUTI

Toshkent shahridagi Inha universitetida 2021-yil 30-sentabrdan "Qirol Sejong Instituti" (King Sejong Institute) koreys tilini o'rganish markazi o'z faoliyatini boshlagan..

Qirol Sejong Instituti koreys tili va madaniyatini targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan ta'lim loyihasidir. Institut koreys alifbosini ixtiro qilgan hukmron sulolaning to'rtinchi qiroli sharafiga nomlangan.

Qirol Sejong Instituti barcha koreys tilini oson va tizimli o'rganishi uchun standart o'quv dasturi va ularni baholash tizimini taqdim etadi.



Toshkent shahridagi Inha universiteti qoshidagi Qirol Sejong Instituti boshlang'ich 1A darajasidan o'rta 1A darajasigacha koreys tili kurslarini taklif etadi.



Qirol Sejong Institutining talabalari uchun Koreyadan kelgan mutaxassislar tomonidan qo'shimcha bepul madaniy darslar olib boriladi. Toshkent shahridagi Inha universiteti talabalari uchun maxsus chegirmalar mavjud.

Toshkent shahridagi Inha universiteti qoshidagi Qirol Sejong Institutining filiali Janubiy Koreyaning INHA universiteti va Koreya Sejong fondi tomonidan tashkil etilgan.

UZLUKSIZ TA'LIM MARKAZI

Pre-University:

Toshkent shahridagi Inha universiteti uzluksiz ta'lim markazi bo'lib, abituriyentlar uchun tayyorlov kurslarini taklif etadi.

Quyidagi nomzodlar kurslarga qatnashishlari mumkin: maktab-litsey va kollejlar bitiruvchilari.

Universitetgacha bo'lgan talabalar TShIU kirish imtihonlarini topshirish uchun 3ta asosiy imtixonlardan tashqari yana bir qo'shimcha imkoniyatga ega bo'ladilar va faqat shartnoma asosida qabul qilinadilar.



Tayyorlov kurslar narxi xususiy repetitorlarga nisbatan ancha arzon.

**IUT ADMISSIONS OPEN
QABUL BOSHLANDI**



Kurslarining o'qituvchilari



Tajribali va yuqori malakali mutaxassislar bo'lib shu jumladan englis tilida so'zlashadilar. Mavzular uch tilda, jumladan englis tilida ham olib boriladi.

Uzluksiz Ta'lim Markazi kurslari

Markaz abituriyentlar uchun tayyorgarlik kurslar va 12-15 yoshli bolalar uchun bir qator kurslarni taqdim etadi.

Tayyorlov kurslarining asosiy maqsadi 3 ta asosiy fan bo'yicha 10-11-sinflar, kollejlar yoki akademik litseylar o'quvchilari uchun TShIU, shuningdek, boshqa oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari fanlari bo'yicha umumiy ta'lim darajasini oshirishdan iborat:



matematika



fizika



IELTSga tayyorgarlik

Kurslarining asosiy maqsadi 6-9-sinf o'quvchilarining quyidagi fanlar bo'yicha umumiy ta'lim darajasini oshirishdan iborat:



matematika



fizika



General English



Frontend dasturlash
asoslari



Python dasturlash asoslari



Sifatlari ta'limga birinchi qadamlar



TShIU nafaqat abituriyentlar, balki kichik yoshdaggi bolalar uchun ham qo'shimcha darslarni taklif etadi. Siz 10 yoshdan boshlab nufuzli universitetda o'qishga tayyorgarlik ko'rishingiz mumkin.

UNIVERSITET MUVAFFAQIYATI



«Universitetda o'qish davomida men operatsion tizimlar: mobil dasturlash, raqamlar nazariyasi, sun'iy intellekt, biznes boshqaruvi va axborot xavfsizligi sohalariga oid juda katta va bebafo bilimlarga ega bo'ldim».

Nuriddin Iminoxunov,

Toshkent shahridagi Inha universiteti bitiruvchisi



Nuriddin Iminoxunov Google Developer Group Tashkent (GDG Tashkent) jamoasini yaratdi. U GDG DevFest festivalining tashkilotchisidir.



«Men turli xil loyihamar uchun universitetga cheksiz minnatdorman, ular tufayli kelajakda men uchun foydali bo'lgan bebafo tajribaga ega bo'ldim. Universitet meniga ijodiy rivojlantirish va shaklantirishda katta istiqbolarni ochib berishga yordam berdi, individual xususiyatlarni namoyon etish va turli ko'nikmalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratdi: kommunikativ, yetakchilik, tashkiliy. Universitetda olingan bilim meni maqsadimga erishishga o'z hisasini qo'shdi».

Darxonbek Mamataliyev,

Toshkent shahridagi Inha universiteti bitiruvchisi



Uber kompaniyasi(AQSh)da iOS muhandisi sifatida ishlaydi. Bundan oldin u Filadelfiyadagi (AQSh) EPAM Global-da katta ishlab chiquvchi (Senior Software Engineer) sifatida ishlagan.

UNIVERSITETNING MUVAFFAQIYATLI TARIXI

“

«Men Inha Universitetiga 2017 yil o'qishga kirganman. O'qish bilan birligida doimiy ravishda tadbirlar va musobaqalarga qatnashish jarayonida juda ham ko'p do'stlar va tajriba orttirdim. Inha Universitetida doimiy ravishda talabalar bilimlarini oshirishlari, yangi do'stlar orttirishlari, tajriba almashinislari uchun hamma imkoniyatlar yaratib berilgan».

Ummatoy Yuldosheva,

Toshkent shahridagi Inha universiteti bitiruvchisi



“Coozin” nomli loyiha ustida ish olib bormoqda. Ushbu loyiha ayollarni ish bilan ta'minlash orqali ularning jamiyatda tutgan o'rmini yanada yuksaltirishga qaratilgan loyiha. Ummatoy Yuldosheva hozirda gender tengligi bo'yicha boshqa loyihalar ustida ham ish olib bormoqda. Usaid tomonidan taqdim etilgan «CSSP Young Civic Leader Scholarship» stipendiyasi sazovori.

“

«Men turli xil loyihalar uchun universitetga cheksiz minnatdorman, ular tufayli kelajakda men uchun foydali bo'lgan bebafo tajribaga ega bo'ldim. Masalan, 2020 yilda biz talabalar va professor Francis Tal Noh rahbarligi ostida biz noyob C-Vision sun 'O' ko'rish tizimini ishlab chiqardik».

Abdulloh Asqarov,

Toshkent shahridagi Inha universiteti bitiruvchisi



Microsoft va Markaziy Osiyodagi Microsoftning yagona hamkoridir. Talaba global kompaniyaning xizmatlarini ilgari surish bilan bir qatorda, Microsoft ko'magi ostida IT-ta'limni rivojlanterishga qaratilgan turli tadbirlarni o'tkazadi va o'tqazilayotgan tadbirlar orqali O'zbekiston asta-sekin imkoniyatlar mamlakati sifatida Microsoft dunyo xaritasida paydo bo'lmoqda.

UNIVERSITETNING MUVAFFAQIYATLI TARIXI

“

“2021-yilda Toshkent shahridagi Inha universitetini tamomlaganman. Universitetda tahsil olar ekanman, bilim olish hayotda juda muhim va qimmatli ekanligini angladim. Bu sizning bilim va ko'nikmalaringizni rivojlantirish, fikrlashni shakllantirish va yangi istiqbollarni kashf etishingiz mumkin bo'lgan vaqt. Universitet turli sohalarini kashf etish, faoliyatning turli sohalarida o'zingizni sinab ko'rish va hayotda o'z o'rningizni topishingiz mumkin bo'lgan joydir”.

Dilmurod Yangiboev

Tesla kompaniyasining Berlindagi ofisida muhandis va dasturchi bo'lib ishlaydi.



Dilmurod Yangiboev 2017-2021 yillarda Toshkent shahridagi Inha universitetida tahsil olgan. 2019-2022 yillarda O'zbekistonda “Udevs”, “EPAM Systems”, Germaniyaning “Momox” kabi kompaniyalarda ishlagan.

“

“Tahrirchi – sun’iy intellektga asoslangan onlayn ilova. Illova o'zbek tilida samaraliroq yozishga yordam beradi va xabarni to'g'ri yozish bo'yicha tavsiyalar beradi”.

Muhammadsaid Mamasaidov, Yasmina Ablayeva, Jasur Yusupov



TShIU talabalari Muhammadsaid Mamasaidov, Yasmina Ablayeva, Jasur Yusupovlar “Tahrirchi” loyihasi bilan mGovAward mukofoti, jamg'armasi 50 000 AQSh dollarini miqdoridagi tanlov g'olib bo'ldilar.

UNIVERSITETNING MUVAFFAQIYATLI TARIXI

“Don't waste” mobil ilovasi bo'lib, foydalanuvchi tez va oson yordamga muhtoj odamlarga xayriya qilishi yoki oziq-ovqat sotishi mumkin. Agar oziq-ovqat endi yeb bo'lmaydigan bo'lса, foydalanuvchilar oziq-ovqat chiqindilarini o'z hayvonlari va chorva mollarini boqish uchun fermerlarga berishlari mumkin. Ushbu xususiyatlar tufayli “Don't waste” oziq-ovqat chiqindilari va issiqxona effektining oldini oladi.

“IUT ENGINEERS” jamoasi

IUT ENGINEERS jamoasi Toshkent shahridagi Inha universitetining besh nafr talabasidan iborat: Javohir Shomuratov, Azizullo Temirov, Valisher Alisherov, Xusan Rashidov va Mehrol Bazarov. Talabalar “Global Best M-GOV Award” tanlovida 1027 ta jamoa orasida ikkinchi o'rinni egalladilar va “Don't waste” loyihasi bilan 136 000 AQSh dollari miqdoridagi mukofotni qo'lga kiritdi.





NEGA AYNAN INHA UNIVERSITETI

- 1** Koreyadagi Inha universiteti diplomini olish mumkin
- 2** Yirik IT-korporatsiyalar, ishlab chiqarish, logistika va bank sohalarida ishlash
- 3** Yuqori malakali professor o'qituvchilar

O`RTACHA
MAOSH

15 MILLION SO`M

Universitet bitiruvchilarining maoshi shuncha

98%



IUT bitiruvchilari ish bilan band yoki magistraturada o'qishadi

IT KORPORATSIYADA ISH



Bitiruvchilarda ishlash imkonii eng katta bo'lgan ommabop yo'nalishi

7%



Bitiruvchilar o'z bizneslarini boshlashdi



XORIJY MUTAXASSISLAR

O'qituvchi professorlarning 30% ni tashkil etadi

DRESS KOD



Mavjud emas



HAFTADA KUNLIK TA'LIM

GRANTLAR VA STIPENDIYALAR



100 joy

Davlat grantlari



15 joy

Akademik grantlar

BIZNING MAQSADIMIZ



Texnologiya, sanoat, biznes va boshqa kasblar bo'yicha kelajak rahbarlarni tarbiyalash.



Ijodiy faoliyat, yangi bilimlarni ilmiy ishlab chiqish, ilmiy izlanish va davlat xizmati orqali jamiyat va millat taraqqiyotiga hissa qo'shish.



Toshkent shahridagi Inha universiteti

Ziyolilar ko'chasi, 9,
Mirzo-Ulug'bek tumani,
Toshkent, 100170

Tel.: +998 71 289 99 99

Faks: +998 71 269 00 58

E-mail: admissions@inha.uz

Koreyadagi INHA universiteti

Inharo 100,
INHA Avenue, Namgu tumani,
Incheon shahri

Tel.: 0082-32-860-7221-5

Faks: 0082-32-860-7210

Vebsayt: eng.inha.ac.kr



SCAN ME